

**SIRDARYO VILOYATI AHOЛИ JON BOSHIGA ISHLAB CHIQARILGAN  
SANOAT MAHSULOTLARINING DINAMIK TAHLILI (MIRZAOBOD TUMANI  
MISOLIDA)**

**Egamqulov Husniddin Erkaboyevich**  
*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti*  
**Raimjonova Ra'no Akram qizi**  
*Guliston davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani sanoat tarmoqlari va uning aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining hajmi keltirib o'tilgan. Sanoat ishlab chiqarishiga oid ma'lumotlar, ko'rsatgichlarning dinamik tahlili keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sanoat, Sanoat tarmog'i, aholi, aholi jon boshi, sanoatda band aholi*

**ДИНАМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВА ПРОМЫШЛЕННОЙ  
ПРОДУКЦИИ НА ДУШУ НАСЕЛЕНИЯ В СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ  
(НА ПРИМЕРЕ МИРЗААБАДСКОГО РАЙОНА)**

**Абстрактный.** *В статье упомянуты отрасли промышленности Мирзаабадского района Сырдарьинской области и объем произведенной промышленной продукции на душу населения.*

**Ключевые слова:** *Промышленность, Производственная сеть, население, численность населения, население, занятое в промышленности.*

**DYNAMIC ANALYSIS OF INDUSTRIAL PRODUCTS PRODUCED PER  
CAPITA OF SIRDARYA REGION  
(IN THE EXAMPLE OF MIRZAABAD DISTRICT)**

**Abstract:** *In the article, the industrial sectors of the Mirzaabad district of the Sirdarya region and the volume of industrial products produced per capita are mentioned.*

**Key words:** *Industry, Industrial network, population, population head, population employed in industry*

**MIRZAOBOD TUMANI  
KIRISH**

MIRZAOBOD TUMANI — Sirdaryo viloyatidagi tuman. 1988-yil 2-sentabrda tashkil etilgan. Dastlab Komsomol, 1992-yil 22-oktabrdan Mirzaobod deb nomlangan. Viloyatning Sirdaryo, Guliston, Sayxunobod, Boyovut, Mehnat-obod, Sharof Rashidov va Oqoltin tumanlari hamda bir qismi Qozog'iston bilan chegaradosh. Mirzaobod tumanida 7 qishloq fuqarolari yig'ini (Birlashgan, Mehnatobod, Mirzacho'l, Navbahor, Nurafshon, Oqoltin, Toshkent) bor..Maydoni 636,3 km<sup>2</sup>. Aholisi 65,2 ming kishi.Tuman markazi – Navro'z shaharchasi.Mirzaobod tumani 2 ta shaharcha, 9 ta qishloq fuqarolar yig'ini, 15 ta mahalla

fuqarolar yig'inidan iborat. Qozog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Guliston, Sardoba, Xovos va Boyovut tumanlari va Guliston shahri bilan chegaradosh.

Xududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi  
(amaldagi narxlarda, mln.so'm)

### 17.1 ilova

	2022 yil											
	yanvar	yanvar-fevral	yanvar-mart	yanvar-aprel	yanvar-may	yanvar-iyun	yanvar-iyul	yanvar-avgust	yanvar-sentyabr	yanvar-oktabr	yanvar-noyabr	yanvar-dekabr
Sirdaryo viloyati	841517,7	1733567,7	2816750,6	3671411,9	4356115,3	5514611,9	6322941,0	7283687,8	8408145,5	9575697,3	10 625 620,8	12 175 187,8
Mirzaobod t	22401,4	54 040,9	98166,4869	130030,413	161624,3	231793,984	259 294,2	326 508,2	347 925,0	447303,3	511 101,3	545 228,5

Mirzaobod tumani sanoati:

Sirdaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmini 100% deb olsak, shundan 2010- yilda 1,4% ni, 2015- yilda esa 2,4% ni, 2020- yilda 5,8%ni, hozirgi kunda esa 2022- yilda 4,5%ni tashkil qiladi. Mirzaobod tumanida sanoat mahsulotlari hajmi 2010- yilda 12,7 mlrd so'mni tashkil qilsa, 2014- yil 43,76 mlrd so'mni, 2018- yil esa 386,7 mlrd so'm, 2020- yil 461,2mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi kunda esa yani 2022- yil bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi 545,2 mlrd so'mni tashkil qiladi. Mirzaobod tumanida ishlab chiqaradigan sanoat 7,8% ni, oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1,9% ni tashkil qilsa, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 4,3 % ni, kiyim ishlab chiqarish 0,2% ni, asosiy formasevtika mahsulotlari 0,6% ,rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish 0,3% ,metallurgiya sanoati 0,1%, mebel ishlab chiqarish ham 0,1%ni tashkil qiladi.

#### Tumanlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi

(amaldagi narxlarda; mlrd. so'm)

	10.1 ilova												
	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	yanvar-dekabr 2022 y.
Sirdaryo	926,8	1211,4	1528,1	1929,3	2363,1	2820,6	3522,3	3806,5	5163,1	7293,0	7990,9	9813,3	12175,2
Mirzaobod t	12,7	17,3	23,4	39,7	43,6	67,9	92,0	169,6	386,7	579,5	461,2	468,1	545,2

Mirzaobod tumanida sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga hajmi 2010- yil bo'yicha 212,3 ming so'm bo'lsa, 2022- yilda 7025,2 ming so'mni tashkil qiladi. Tumanda tekstil va tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Atis textile production", "KNR-Chan-Chin", "Maer textile" kabi qo'shma korxonalar faoliyat yuritadi.

Aholi o'rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Toshkent shahrida joriy yilning o'tgan davrida 3700 dan ortiq yangi tadbirkorlik subyektining ro'yxatga olingani buning dalilidir. Shuningdek Mirzaobod tumanida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jadal rivojlanmoqda. Ayni vaqtda ularning oldidagi mavjud to'siq va g'ovlarni bartaraf etish korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlash va yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Tuman xo'jaligi :

Xo'jaligining asosi — dehqonchilik, yetakchi tarmog'i — paxtachilik. G'alla, sabzavot, poliz, meva, uzum, kartoshka ham yetishtiriladi. Tumanning asosiy ekin maydoni 44426 ga, shundan sug'oriladigan yerlar 24043 ga. Mirzaobod tumanida 10 shirkat, 43 dehqon-fermer xo'jaligi, 5 xususiy ferma, 2 chorvachilik aksiyadorlik jamiyati bor. Tumanda 3 sanoat, 2 qurilish korxonasi, 37 xususiy korxonasi, dehqon bozori, Xalq banki binosi, stadion, tennis korti

mavjud. 30 ga yaqin umumiy ta'lim maktabi, kasb-hunar, 2 iqtidorli bolalar litseylari faoliyat ko'rsatadi. 3 kasalxona, 5 qishloq vrachlik punkti, markaziy poliklinika xalqqa xizmat qiladi.

**Tug'ilganlar soni**

(yilda; kishi)

	Jami	shu jumladan:	
		qiz bolalar	o'g'il bolalar
<b>2021</b>			
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>23244</b>	<b>11265</b>	<b>11979</b>
<b>Mirzaobod t.</b>	<b>2240</b>	<b>1062</b>	<b>1178</b>

**O'lganlar soni**

(yilda; kishi)

	Jami	shu jumladan:	
		ayollar	erkaklar
<b>2021</b>			
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4173</b>	<b>1825</b>	<b>2348</b>
<b>Mirzaobod t.</b>	<b>312</b>	<b>133</b>	<b>179</b>

Mirzaobod tumanida demografiya:

Tumanda 2010- yili tug'ilganlar soni 1440 kishi, shundan 718 kishi qiz bolalar, 722 kishi esa o'g'il bolalarga to'g'ri keladi. Shu yili o'lganlar soni 226 kishi, shundan 98 kishi ayollar, 128 kishi esa o'g'il bolalarni tashkil qiladi. Hozirgi kunda ya'ni 2022- yili tug'ilganlar soni 1380 kishi, shundan 727 kishi qiz bolalar, 653 kishi esa o'g'il bolalarga to'g'ri keladi. Shu yili tumanda o'lganlar soni 398 kishi, shundan 238 kishi ayollar, 160 kishi esa erkaklarga to'g'ri keladi. Demak tumanda tug'ilganlar soni 2010- yilga nisbatan, 2022- yilda 4,1%ga kamaygan. Huddi shu yillar hisobi bo'yicha tumanda o'lganlar soni 44,5%ga kamaygan hisoblanadi.

**Ko'chib ketganlar soni**

(yilda; kishi)

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>8 758</b>	<b>6 976</b>	<b>8 171</b>	<b>7 611</b>	<b>7 499</b>	<b>7 314</b>	<b>6 974</b>	<b>8 417</b>	<b>9 125</b>	<b>9 471</b>
<b>Mirzaobod t.</b>	<b>605</b>	<b>495</b>	<b>628</b>	<b>684</b>	<b>573</b>	<b>611</b>	<b>557</b>	<b>697</b>	<b>844</b>	<b>863</b>

**Ko'chib kelganlar soni**

(yilda; kishi)

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>6 708</b>	<b>7 166</b>	<b>7 117</b>	<b>7 766</b>	<b>7 085</b>	<b>6 804</b>	<b>5 799</b>	<b>7 651</b>	<b>8 599</b>	<b>8 934</b>	<b>7094</b>	<b>8714</b>	<b>6885</b>
<b>Mirzaobod t.</b>	<b>662</b>	<b>691</b>	<b>659</b>	<b>681</b>	<b>632</b>	<b>712</b>	<b>614</b>	<b>690</b>	<b>919</b>	<b>1 115</b>	<b>932</b>	<b>817</b>	<b>683</b>

**Hududlar bo'yicha shahar va qishloq aholisi soni**

(yanvar-dekabr; ming kishi)

\*dastlabki

	Jami aholi	shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
<b>2022</b>			
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>896,6</b>	<b>386,3</b>	<b>510,3</b>
<b>Mirzaobod t.</b>	<b>78,1</b>	<b>6,4</b>	<b>71,7</b>

## Hududlar bo'yicha shahar va qishloq aholisi soni

(vil boshiga; ming kishi)

	Jami aholi	shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
<b>2022</b>			
<u>Sirdaryo viloyati</u>	878,6	374,3	504,3
<u>Mirzaobod t.</u>	77,1	6,3	70,8

### Tumanda migratsiya va urbanizatsiya:

Tumandan ko'chib ketganlar soni 2010- yili 605 kishi , tumanga ko'chib kelganlar esa shu yili 662 kishi to'g'ri keladi. 2010- yili tumanda jami aholi 59,6 mingkishi bo'lsa , shundan 5,2 ming kishi shaharda, 54,4 ming kishi esa qishloq aholisini tashkil qiladi. 2022- yili tumanda ko'chib ketganlar soni 628 kishi , shu yili ko'chib kelganlar soni tumanda 683 kishini tashkil qiladi. 2022- yili tumanda jami aholi 78,1 ming kishi bo'lsa , shuning 6,4 ming kishi shaharda, 71,7 ming kishi esa qishloqda istiqomat qiladi. Mirzaobod tumanida 2010- yilga nisbatan ,2022- yilda ko'chib ketganlar soni 3,6%ga oshgan. Shu yillar bo'yicha tumanda ko'chib kelganlar soni 3%ga ko'paygan. Tumanda aholi uchun shart sharoitlar qancha yaxshi bo'lsa , aholi o'sishi yuqori bo'ladi. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, rus, tatar, tojik, qozoq, ozarbayjon va boshqa millat vakillari ham yashaydi. 1 km<sup>2</sup> ga 94 kishi to'g'ri keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. NOZOEKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI KASALLANISHINING HUDUDIIY TAHLILI Komilova N.M.,Muxammedova N.J.,Karshibayeva L.K.,Egamqulov H.E.
- 2.Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
- 3.Soliyev A.S.O'zbekiston geografiyasi(O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)-T.Universitet,2014
- 4.SIRSTAT
- 5.<http://siat.stat.uz>